



O'ZBEKISTON AHOLISINI IJTIMOIIY QO'LLAB QUVVATLASHNI STATISTIK TADQIQ ETISH

Qurbonboyev Abdulla Mansur o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0008-7660-4456
aqm97@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi statistik tahlil asosida o'rganildi. Mamlakatda ijtimoiy himoya siyosati aholining turmush darajasini yaxshilash, bandlikni oshirish va kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan bo'lib, uning samaradorligini baholashda rasmiy statistik ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Moliya vazirligi, BMT va Jahon banki tomonidan taqdim etilgan ochiq ma'lumotlardan foydalangan holda deskriptiv va dinamik tahlil metodlari qo'llanildi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, statistika, aholi farovonligi, iqtisodiy tahlil, ijtimoiy nafaqalar, bandlik, aholi turmush darajasi, kambag'allik darajasi, ijtimoiy moliya siyosati, ijtimoiy transfertlar.

СТАТИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Қурбонбоев Абдулла Мансур ўғли
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В рамках данного исследования проведён анализ системы социальной поддержки населения Республики Узбекистан на основе статистических методов. Социальная политика государства ориентирована на повышение уровня жизни населения, рост занятости и снижение уровня бедности, при этом официальная статистика выступает ключевым инструментом оценки её результативности. В работе применены методы описательного анализа и анализа динамики с использованием открытых данных, предоставленных Статистическим агентством Республики Узбекистан, Министерством финансов, Организацией Объединённых Наций (ООН) и Всемирным банком.

Ключевые слова: социальная защита, социальная поддержка, статистика, благосостояние населения, экономический анализ, социальные пособия, занятость, уровень жизни населения, уровень бедности, социальная финансовая политика, социальные трансферты.

STATISTICAL RESEARCH ON SOCIAL SUPPORT FOR THE POPULATION OF UZBEKISTAN

Qurbonboyev Abdulla Mansur o'g'li
Tashkent State University of Economics

Abstract. *This study examines the system of social support for the population in the Republic of Uzbekistan through statistical analysis. The country's social protection policy is aimed at improving the population's living standards, increasing employment, and reducing poverty, where official statistical data are of critical importance in assessing its effectiveness. During the research, methods of descriptive and trend analysis were applied using open-access data provided by the Statistical Agency of the Republic of Uzbekistan, the Ministry of Finance, the United Nations (UN), and the World Bank.*

Keywords: *social protection, social support, statistics, population well-being, economic analysis, social benefits, employment, standard of living, poverty level, social financial policy, social transfers.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va turmush darajasini yaxshilashdan iborat. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni moddiy hamda ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Ushbu tizimning samaradorligi turli statistik ko'rsatkichlar orqali baholanadi, jumladan, aholining daromad darajasi, bandlik ko'rsatkichlari, davlat tomonidan ajratilayotgan ijtimoiy yordamlar va ularning ta'sir doirasi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar jadal olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan PF-60-son Farmonida Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida kambag'allikni qisqartirish, bandlikni oshirish, ijtimoiy nafaqalarni takomillashtirish kabi masalalar ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan (Farmon, 2022). Shu bilan birga, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning manzillilik darajasi va samaradorligini oshirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot O'zbekistonda aholining ijtimoiy himoyasini statistik tahlil asosida o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida ijtimoiy himoya choralari va ularning aholining turmush darajasiga ta'siri tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi va ularni hal etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqotda deskriptiv statistika, dinamik tahlil, kabi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llaniladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va kelgusida yanada chuqur tadqiqotlar olib borish uchun asos yaratishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish va uning statistik tahliliga oid tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Ushbu bo'limda mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqamiz.

O'zbekistonda ijtimoiy-moliyaviy siyosat va aholini ijtimoiy himoya qilish masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Vahobov va Malikov (2011) ta'kidlashicha, ijtimoiy rivojlanish nafaqat ta'lim va sog'liqni saqlash sohasiga ajratilgan mablag'lar bilan belgilanadi, balki iqtisodiy barqarorlik va bandlik siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Qosimova (2004) ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda byudjet siyosatining o'rni haqida fikr yuritgan bo'lsa, Rafikov (2018) O'zbekistondagi ijtimoiy siyosatning xususiyatlarini ta'kidlab, uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilgan.

Shu bilan birga, Baratova (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining 2019-2023-yillardagi davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy himoya yo'nalishining dinamikasi o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, budget mablag'larining 50-54% ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan bo'lsa-da, uy-joy dasturlari va bandlikni qo'llab-quvvatlash masalalarida ayrim cheklovlar kuzatilgan. Muallif ijtimoiy yordamning manzilliligini oshirish, raqamlashtirish va shaffoflikni kuchaytirish orqali tizim samaradorligini yaxshilash zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda ijtimoiy-moliyaviy siyosatni chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi va ilgari o'rganilgan ishlarni yanada to'ldiradi.

Ro'ziyevning (2024) tadqiqotida O'zbekistonda ijtimoiy himoya va moliyaviy imkoniyatlarning adolatsiz taqsimlanishi muammosini tahlil qiladi. Tadqiqot rasmiy statistik ma'lumotlarga asoslanib, ijtimoiy yordamning qamrovi va samaradorligi haqida muhim xulosalar beradi. Muallifning fikricha, ijtimoiy yordam tizimi aholi qatlamlari o'rtasida noqulayliklarni kamaytirishga xizmat qilishi lozim, biroq amaliyotda ba'zi guruhlar undan etarlicha foydalana olmaydi.

Kutbitdinova (2024) o'zining ilmiy tadqiqotlarida ijtimoiy himoya tizimining asosiy statistik ko'rsatkichlarini tahlil qilib, axborot bazalarining ishonchligini o'rganadi. Uning tadqiqotiga ko'ra, mamlakatda ijtimoiy yordam va pensiyalar bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, ularning aniqligi va ochiqdigi masalasida muayyan muammolar bor. Bu esa tizimni tahlil qilish va takomillashtirishda qiyinchilik tug'diradi.

Axmedova (2024) xalqaro indekslar asosida O'zbekistonda yoshlarning farovonlik darajasini baholaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatda yoshlarning turmush darajasini yaxshilash uchun ijtimoiy himoya tizimiga yanada ko'proq e'tibor qaratish lozim. Bu ish aholini qo'llab-quvvatlash dasturlarining samaradorligini baholash uchun xalqaro tajribani o'rganishning muhimligini ko'rsatadi.

Olloyorov va Bahtiyorovalar (2024) o'zlarining ilmiy izlanishlarida O'zbekiston davlat qarzining boshqaruvi va uning ijtimoiy ta'sirlarini o'rganib chiqadi. Ular davlat byudjeti va qarz yuki bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy xavflarni tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy himoya tizimi barqaror bo'lishi uchun moliyaviy rejalashtirish va davlat mablag'laridan samarali foydalanish zarur.

Ijtimoiy masalalarni tahlil qilishda gender tengligi va yosh oilalar bilan bog'liq taraflarni ham o'rganish maqsadga muvofiq bo'lib, Ahnazarovanning (2024) ishida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining oilalarga ta'siri ko'rib chiqilgan. Muallifning fikricha, gender nuqtai nazaridan samarali ijtimoiy himoya tizimini yaratish uchun davlat siyosatini yanada rivojlantirish kerak.

Xulosa qilib aytganda, mavjud tadqiqotlar O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining turli jihatlarini o'rganadi. Ularning barchasi tizimni takomillashtirish uchun muhim tavsiyalar beradi. Bu maqolada esa ijtimoiy himoya tizimining statistik tahliliga asoslangan yondashuv qo'llanilib, mavjud muammolar va ularning echimlari taklif qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot O'zbekiston aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining statistik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, mavzu doirasidagi mamlakatimiz Prezidentining qaror va farmonlar, hukumatimiz qarorlari bilan belgilangan vazifalarga hamda mavzu doirasida tadqiqot olib brogan iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari o'rganilib, mavzuning o'rganilganlik darajasi tadqiq etilgan. Tadqiqotda asosiy e'tibor mamlakatdagi ijtimoiy himoya choralarning samaradorligini o'rganishga, ularning aholining turmush darajasiga ta'sirini baholashga va mavjud muammolarni aniqlashga qaratildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


O'zbekiston Respublikasida aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi turli dasturlar va mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu tadqiqot doirasida ijtimoiy himoya

ko'rsatkichlari, bandlik darajasi, ijtimoiy nafaqalar va davlat tomonidan taqdim etilayotgan yordamlarning statistik tahlili olib borildi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda aholining real daromadlari sezilarli darajada oshgan. Xususan, 2024-yilda o'rtacha ish haqi 17,4% ga oshgan. Bu ijtimoiy himoya choralari samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Biroq, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga yo'naltirilgan moddiy yordam va nafaqalar hajmi hali ham cheklangan. Xususan, kambag'allik darajasi 2024-yilda 8,9-10% atrofida bo'lib, bu ko'rsatkichni kamaytirish uchun davlat tomonidan subsidiya va nafaqalar ajratish jarayoni kengaytirilmoqda.

Mamlakatimizda bandlikni oshirish va kambag'allikni kamaytirish bo'yicha keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirmoqda. Xususan: 2025-yilda 1,5 million yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. Yoshlar va ayollarni ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq, mehnat bozorida norasmiy bandlik darajasi hali ham yuqori bo'lib, bu ijtimoiy himoya tizimining to'laonli ishlashiga to'sqinlik qilmoqda.

Hozirgi paytda davlatning ijtimoiy moliyaviy siyosati umumiy tarzda pensiya siyosati, bandlik siyosati, aholi ayrim sotsial guruhlariga moliyaviy yordam ko'rsatish siyosati va boshqa siyosatlarni o'z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. Davlat ijtimoiy-moliyaviy siyosati yo'nalishlari

Shuni aytib o'tish kerakki davlatning iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy omillarning rivojlanishi ustuvorligiga e'tibor qaratilishi aholining turmush farovonligini oshirishni ta'minlashi ijtimoiy xizmatlar sohasida islohotlarning qonuniy asoslarini yaratilishga olib keladi. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlari bir qator moliyalashtirish manbalariga ega bo'lib, davlat byudjeti mablag'lari ular ichida asosiy ahamiyatga va salmoqli o'ringa ega. Davlat byudjeti xarajatlari 2019-yilda 107118,4 mlrd. so'mni va 2023-yilda 257 734 mlrd. so'mni tashkil etgan. Jami budjet xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha xarajatlari yillar mobaynida o'zgarib, 2019-yilda 54% ni, 2020-yilda 50.4% ni, 2021- yilda 52.2% ni, 2022-yilda 49.7% ni va 2023-yilda 50.4% ni tashkil etgan. Nafaqa, moddiy yordam va kompensatsion to'lovlar xarajatlarining jami byudjet xarajatlaridagi ulushi 2023-yilda 2019-yildagi 4,9% da 7,0% ga, uy-joy qurish dasturi xarajatlari ulushi 2019-yildagi 2,8% dan 2021-yilda 0,4% ga tushgan, pensiya jamg'armasiga transfertlar ulushi esa 2019-yildagi 4,4% 2023-yilda 5.8% ga ko'tarilgan. O'z navbatida o'tgan 5 yil mobaynida ijtimoiy nafaqa, moddiy yordam va kompensatsion to'lovlar xarajatlari, pensiya jamg'armasiga transfertlar xarajatlarining ijtimoiy soha xarajatlaridagi ulushi ortib, uy-joy qurish dasturi xarajatlari 1,4% ga tushgan. (1-jadval)

Shuningdek, ushbu hujjat bilan 2021–2030 - yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi konsepsiyasi va strategiyani ishlab chiqish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasida ijtimoiy himoya sohasida ijtimoiy yordam va xizmatlarning bazaviy kafolatlari belgilanadi. Bunga quyidagi chora-tadbirlar kiritildi:

- asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, ta'lim, parvarish va boshqa zarur bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar olishga imkoniyati bo'lmagan bolalarga ko'maklashish;

- kasallik, ishsizlik, onalik va nogironlik kabi holatlar tufayli o'zini o'zi ta'minlash masalalarini to'liq hal qila olmaydigan mehnatga layoqatli fuqarolarni kafolatlangan daromadlar bilan ta'minlash;
- keksa yoshdagi fuqarolarni kafolatlangan daromad bilan ta'minlash.

1-jadval

2019-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlari tarkibida aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining tutgan o'rni, mlrd. so'mda

	Xarajatlar	2019	2020	2021	2022	2023
	Davlat budjeti xarajatlari	107118,4	131104,5	188257,1	236692,0	257 734
	Ijtimoiy soha xarajatlari	57822,3	66018,1	92013,6	117691,9	129 891
	Jami budjet xarajatlariga nisbatan %da	54,0	50,4	48,9	49,7	50,4
1	nafaqa, moddiy yordam va kompensatsion to'lovlar xarajatlari	5267,2	6 573,70	10 880,3	19 397,1	18 067
1.1	jami budjet xarajatlariga nisbatan %da	4,9	5,0	5,8	8,2	7,0
1.2	ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	9,1	9,9	11,8	16,5	14
2	uy-joy qurish dasturi xarajatlari	2978,1	1 905	2409	1 010,8	1 100
2.1	jami budjet xarajatlariga nisbatan %da	2,8	1,5	1,5	0,4	0,4
2.2	ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	5,2	2,9	2,8	0,9	0,8
3	Pensiya jamg'armasiga transfertlar	4700	8 000	14 700	11 092,0	15 000
3.1	jami budjet xarajatlariga nisbatan %da	4,4	6,1	8,9	4,7	5,8
3.2	ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	8,1	12,1	17,0	9,4	11,5

Yuqoridagilar bilan bir qatorda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi konsepsiyasi amaldagi ijtimoiy himoya tizimining samarali ishlashiga to'sqinlik qiladigan asosiy kamchiliklar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy himoya sohasida kompleks yondashuvning mavjud emasligi, ya'ni ijtimoiy himoya sohasidagi munosabatlarni davlat tomonidan yagona muvofiqlashtiruvchi organning mavjud emasligi;
- kambag'al va aholining ijtimoiy himoyalanganlik jihatidan zaif qatlamlarning yetarli darajada qamrab olinmaganligi;
- hayoti davomida barcha fuqarolar uchun hech bo'lmaganda asosiy ijtimoiy muhofazaning, shu jumladan, asosiy tibbiy yordamdan foydalanish, onalikni muhofaza qilish va bazaviy daromadlarni ta'minlaydigan kafolatlarining yo'qligi;
- shaffoflikni yetishmasligi, ya'ni ijtimoiy nafaqalarni olish jarayonini kuzatish uchun sharoitning yo'qligi;

Bugungi kunda ijtimoiy moliyaiviy siyosatning quyidagi muhim yo'nalishlar ijobiy hal qilinmoqda:

- yolg'iz keksalar nogironlar va ishga layoqatsiz fuqarolarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish dasturini amalga oshirish;
- ishsiz fuqarolarni haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;
- kam ta'minlangan oilalarga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun maqsadli mikrokreditlar ajratish;
- tadbirkorlik faoliyatiga jadal jalb qilish;
- mehnat bozoridagi vaziyat murakkab bo'lgan hududlarda ishsizlikni qisqartirish maqsadida sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi tashkil etilayotgan korxonalarini maqsadli joylashtirish;
- o'z biznesini kengaytirishiga imtiyozli kreditlar ajratish orqali yoshlar uchun ish o'rinlari tashkil etish.

Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash turli xil usullar mehnat daromadlarining qo'shimcha manbalari bilan ta'minlash orqali daromadlari oshirilmoqda.

Respublikamizda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining real daromadlarini oshirish uchun turli dasturlarni amalga oshirmoqda. Jumladan: Kam ta'minlangan oilalar uchun ajratilgan ijtimoiy nafaqalar soni oshirildi. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun subsidiya va yordam pullari hajmi 2023-yilda 25% ga oshirilgan. "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" kabi dasturlar doirasida aholiga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish davom etmoqda.

Aholining umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu daromadlar ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy transfertlar tarkibi pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalardan iborat bo'lib, 2024-yilda pensiyalar eng ko'p ulush – 80,5 % ni tashkil qilgan bo'lsa, nafaqalar 17,8 % ni, stipendiyalar 1,7 % ni tashkil etdi. (2-rasm)



2-rasm. Ijtimoiy transfertlar tarkibi (2024-yilning yanvar-dekabr holatiga, % da)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2024-yilning yanvar-dekabr oylari ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o'sish sur'ati 113,7 % ni tashkil etdi. Ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi 26,0 % ni tashkil etdi. (3-rasm)



3-rasm. Transfertlardan olingan daromadlarni o'sish sur'ati va ulushi (2024-yilning yanvar-dekabr holatiga, % da)

2024-yilning yanvar-dekabr oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning 36,6 % ini ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, 63,4 % ini boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi. (4-rasm)



4-rasm. Transfertlardan olingan daromadlar tarkibi (2024-yilning yanvar-dekabr holatiga, % da)

Aholining real daromadlarini Respublika aholisi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2024-yilda O'zbekistonda o'rtacha nominal ish haqi 5,37 mln so'mdan oshdi, bu 2023-yilga nisbatan 17,4% ko'p. Bu, shuningdek, so'nggi etti yildagi eng past o'sish sur'ati (pandemiyali 2020-yildan tashqari). Toshkent shahrida ushbu ko'rsatkich 9 mln so'mdan ortdi (+21,4%). O'qituvchi va shifokorlarning maoshi sekinroq o'smoqda.



5-rasm. 2020-2024 yillarda O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi (yanvar-dekabr)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2024-yilda O'zbekistonda inflyatsiyani hisobga olmagan holda o'rtacha hisoblangan nominal ish haqi yillik ko'rsatkichda 17,4% (2023-yilga nisbatan) — 4,56 million so'mdan 5,36 million so'mga oshdi.(5-rasm)

2-jadval

Yil	Nominal ish haqining o'sish sur'atlari (%)	Inflyatsiya darajasi (%)	Ish haqining real o'sish sur'atlari (%)
2020	15	11,1	3,5
2021	20,2	10	9,3
2022	20,7	12,2	7,6
2023	17,5	8,8	8,0
2024	17,4	9,8	6,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida ta'kidlash mumkinki, Respublikamizda so'ngi besh yillikda nominal ish haqining o'sish sur'atlari 15% va undan yuqori bo'lgan ko'rsatkichlarni qayd etgan. Lekin oxirgi yillarda 2023-yil 17,5 % , 2024-yilda esa 17,4 % ni tashkil qilib, ushbu ko'rsatkich pasayganini ko'rishimiz mumkin.

Inflyatsiya darajasiga to'xtaladigan bo'lsak, oxirgi ikki yilda 2023-yil 8,8 %, 2024-yilda esa 9,8 % ni tashkil qilib, oldingi yillarga qaraganda pasayganligini, lekin 2024 -yilga kelib esa 2023- yilga nisbatan 1% ga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Shuning bilan bir qatorda ish haqining real o'sish sur'atlari 2020-yil (3,5%) pandemiya davridan tashqari golang keyingi yillarda kamayish tendensiyasiga ega ekanligini, jumladan: 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 6,9 % ni oldingi yillarga nisbatan eng kam ko'rsatkich ekanligi va bu ko'rsatkichlar inflyatsiya darajasidan past bo'layotganligini hisobga olsak, aholining real daromadlari oshirish ilojlarini ko'rish vazifalarini maqsad qilib qo'yish zarur.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimi aholining turmush darajasiga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Jumladan: Ijtimoiy yordam olayotgan oilalar daromadi o'rtacha 20% ga oshgan. Davlat budjeti hisobidan ijtimoiy himoya uchun ajratilgan mablag' so'nggi 3 yilda 30% ga oshirilgan. Elektron platformalar orqali ijtimoiy yordamning manzilliligini oshirish natijasida noqonuniy yordam olish holatlari kamaygan.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston Respublikasida aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va aholi turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot davomida ijtimoiy himoya tizimining asosiy yo'nalishlari, ularning natijalari va istiqbollari statistik tahlil asosida o'rganildi.

O'zbekiston aholisini ijtimoiy qo'llab quvvatlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhim deb hisoblaymiz. Yordam mexanizmlarining manzilliligini oshirish, resurslarni to'g'ri taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish orqali tizim samaradorligini oshirish lozim.

Ijtimoiy yordamning manzilliligini kuchaytirish, kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga to'g'ri yo'naltirilgan moddiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish, subsidiyalar va ijtimoiy nafaqalarni ajratishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, norasmiy bandlikni kamaytirish ilojlarini amalga oshirish.

Shular bilan bir qatorda Rasmiy mehnat bozoriga jalb qilish uchun tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, ish o'rinlari yaratish uchun xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish, ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash vazifalarini yo'lga qo'yish.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib unga qo'shimcha qilgan holda Fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun elektron xizmatlar va "yagona darcha" tizimini takomillashtirish, Ijtimoiy yordam dasturlariga aholining ishonchini oshirish uchun shaffof monitoring tizimini yo'lga qo'yish, boshqa mamlakatlarning innovatsion ijtimoiy yordam dasturlarini o'rganish va moslashtirish ishlarini amalga oshirishni ham belgilab qo'yish zarur.

Umuman olganda, O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Ammo uni yanada samarali qilish uchun davlat tomonidan strategik rejalashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ijtimoiy yordam qamrovini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

- Akhazarova, D. (2024). *Modern Uzbek Young Family: Gender Analysis. Intellectual Education Technological*. PDF.
- Allayarov, S.R., & Bakhtiyorova, S.S.Q. (2024). *The Effective Ways of Management of Uzbekistan's Public Debt. Science and Education*. Maqola.
- Axmedova R. (2024). *Analysis of International Indices for Measuring Youth Well-Being. American Journal Of Social Sciences And Humanity*. PDF.
- Baratova, M. X. (2024). *Aholi farovonligini ta'minlashda davlat ijtimoiy-moliyaviy siyosatning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 5(10), 225-232.* <https://cyberleninka.ru/article/n/aholi-farovonligini-ta-minlashda-davlat-ijtimoiy-moliyaviy-siyosatning-ahamiyati-va-o-ziga-xos-xususiyatlari/viewe>
- Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.* imv.uz (n.d.) *O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti.*
- Kutbitdinova, M. (2024). *Statistical Indicators Representing Social Protection of the Population and Their Information Base. Multidisciplinary Journal of Science and* PDF.
- prezident.uz (n.d.) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentning rasmiy sayti.*
- Qosimova G.A. (2004) *Ijtimoiy-madaniy sohalarini rivojlantirishda byudjet siyosati. - T: "Moliya va iqtisod", -152 b.*
- Rafikov Q. (2018) *Kuchli ijtimoiy siyosatning O'zbekistonga xos tajribasi.* <https://xs.uz/uz/post/kuchli-izhtimoiy-siyosatning-ozbekistonga-khos-tazhribasi>
- Ruziev, K. (2024). *Connectedness and Inequitable Access to Formal Financing in Uzbekistan. Central Asian Law: A Law and Society Analysis*. PDF.
- stat.uz (n.d.) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti.*
- undp.org (n.d.) *BMTning rasmiy web sayti.*
- Vahobov A.V, Malikov T.S. (2011) *Moliya. Darslik. T: "Noshir" -711 b.*